

**CHE TILLARNI O'RGANISHDA TIL TURIZMINING
O'RNI VA AHAMIYATI**

Jiyanova Gulchehra Murod qizi
Samarqand davlat chet tillari instituti magistranti
Phone number: +998901984693

Annotation

In this article, the origin of language tourism, the role of tourism in today's society the concept and characteristics of language tourism..

Key words

language tourism, origin of tourism, place in society, concept and features

Аннотация

Ushbu maqolada til turizmining kelib chiqishi, turizmning bugungi kundagi jamiyatdagi o'rni, til turizmining konseptsiyasi va xususiyatlari.

Калип сўзлар

til turizmi, turizmning kelib chiqishi, jamiyatdagi o'rni, til turizmining konseptsiyasi va xususiyatlari.

Chet tillarni bilish - bu davr talabi, tilning o'zi va o'rganilayotgan tilning mamlakat madaniyati haqida yangi bilimlarga ega bo'lishning cheksiz usulidir. Davlatimiz xorijiy tillarni o'rganishda katta rol o'yynaydi.

President Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 6 – may kuni chet tillarini o'qtish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqida: "Mamlakatimizda xorijiy tillarni o'rgatish bo'yicha kelajak uchun mustahkam poydevor bo'ladigan yangi tizimni yo'lga qo'yish vaqtisi-soati keldi. Biz raqobatdosh davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, bundan buyon maktab, litsey, kollej va oliy o'quv yurti bitiruvchilari kamida 2 ta chet tilini mukammal bilishlari shart.

Zamonaviy dunyoda chet tilini o'rganish usullari va yondashuvlari til turizmi tobora ommalashib bormoqda, bu esa o'quvchilarga tilni o'rganish uchun qiziqish va tezkorlik bilan va til haqida keng qamrovli omillarni o'rganish imkonini beradi.

Til turizmi masalasi ko'plab mualliflarning maqolalari va asarlarida, masalan, L.S. Tuxliyev, R. Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R. Tursunova, Artyushevskaya S. V., E. A. Lunin, A. N. Kovaleva, tilshunoslik turizmiga bag'ishlangan xorijiy asarlar orasida, 2014 – yilda chop etilgan ispaniyalik yozuvchi Iglesias M., Richie Brent va Hg Labord. Ekskursiyalarning o'ziga xos xususiyatlari haqida biz Emelyanova B.V. ishiga asoslandik.

Turizm inson faoliyatining eng qadimgi turlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi miloddan avvalgi I asrda boshlangan va hali ham davom etmoqda. Uning rivojlanishiga asosan ilmiy va texnologik taraqqiyot muhim darajada ta'sir ko'rsatdi.

O'rta asrlarda diniy asosga ega bo'lgan turizm - ziyyoratchilikning keng tarqalgan davriga aylandi. Ushbu turdag'i turizm XX asr va birinchi Juhon urushiga qadar juda mashhur bo'lgan va bu hali ham o'z xususiyatini yo'qotgani yo'q. Buni biz mamlakatimizda aynan ramazon oyida va haj amalini bajarish muddatida eng cho'qqiga chiqishini kundalik hayotimizda kuzatishimiz mumkin.

Turizmning ilk ko'rinishini Eneida, Odisseya va Illiada asarlarida aniq dalil sifatida uchratishimiz mukin. Yunon Olimpiada o'yinlarida turizm va xordiq vajida ko'plab sayohat amallarini bajarishgan.

Bugungi kunda esa zamonaviy turizmning asoschisi sifatida angliyalik tadbirdor Tomas Kuk tan olinadi. U birinchilardan bo'lib, sayohat maqsadida ommaviy safar uyuştirishning mohiyati va foydaliligin anglab yetdi, hamda 1843- yilda dastlabki temiryo'l orqali turni muvaffaqiyatl tashkillashtiradi. 1851- yilda Tomas Kuk mamlakatning barcha xududlaridan kelgan 165 ming kishini Parijdag'i ko'rgazmada ishtirot etishini tashkil qiladi. Ko'rgazmaga qilingan sayohat katta foyda keltirganligi sababli, Kuk Angliyalik turistlarning 1865 - yilda Parijga Butunjahon ko'rgazmasiga ommaviy ravishda tashrif buyurishining tashkilotchisi bo'ldi. Tomas Kuk 1872 – yilda birinchi bo'lib sanoat asosida jahon bo'ylab sayohat uyuştirishni taklif qilgan. Bugungi kunda «Tomas Kuk» kompaniyasi butun dunyoda 12 000 dan ortiq turistik agentliklarga ega bo'lib, yiliga 20 milliondan ortiq turistga xizmat ko'rsatadi

Yurtimizda esa ilk turizm harakatlarini ko‘z oldimizga keltirish uchun zardushtiylik dinining muqaddas kitobi «Avesto”da bundan tashqari «Go‘ro‘g‘li”, «Alpomish”, «Tohir va Zuhra”, «Qirq qiz” kabi xalq og‘zaki ijodi hisoblanuvchi o‘nlab dostonlarimizni misol tariqasida keltira olamiz.

Zamonaviy global dunyoda, bilim, madaniy va akademik integratsiya iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida ta’lim sifati va xorijiy tillarni bilish darajasiga bo‘lgan talablar kuchaytirilmoqda. Joriy yilda ko‘plab talabalar xorijiy ta’lim muassasalarida sifatlari ta’lim olishga, xalqaro akademik mobillik dasturlarida, til kurslarida va chet ellarda professional stajirovkalarda faol ishtirot etishga intilmoqda.

Til turistlari uchun eng muhim motivlardan biri bu boradigan shahar tarixi va madaniyatini bilishi kerak ekanligini ta’kidlanmoqda, bu haqiqatni barcha madaniy sayyoohlar ham alohida ajratib ko‘rsatishadi. Quyida til turizmining ba’zi muhim xususiyatlarini keltirib o’tamiz: ajoyib iqtisodiy ta’sir, bu tarixiy – madaniy meros va katta boylik ko‘p hollarda turistlarga mahsulot sifatida taklif etiladi, bunday turistlar bir-birini to’ldiruvchi mahsulotlarning keng turlaridan foydalanadilar (tiklangan manzillar, kitoblarni sotib olish, bo’sh vaqt va boshqalarga).

Genisning fikriga ko‘ra, til turizmida asosiy yosh 5 yoshdan 28 yosh oralig’igacha bo‘lgan sayohat ular tilni o’rganish uchun ma’lum bir mamlakatda ma’lum vaqt davomida yashaydilar. Til turizmiga sayohatlar darajalari bo‘yicha (bir tomondan boshlang’ich, o’rtta maktab, ikkinchi tomondan universitet), yashash muddati bo‘yicha, qisqa muddatli 2 haftadan 4 haftagacha, uzoq muddatli 2 oydan 6 oygacha, turar joy turiga (maktab / turar joy yoki oila), tajriba turi bo‘yicha (almashinish yoki yo’q) turlarga bo‘linadi. Til turistlarining qolish muddati ularning qaysi millatdan kelib chiqishiga bog’liq, masalan Koreya yoki Saudiya Arabistoniga til turistlari ko‘proq vaqt tilni o’rganishga sarf qilsa, yevropaliklar qisqa muddat qolishga moyil bo‘lishadi.

Til turistlarining malum mamlakatda bo’lishlari ular yashayotgan geografik hududning va doimiy yashayotgan fuqarolarning bandligiga bevosita iqtisodiy ta’sir ko‘rsatishini alohida ta’kidlash lozim. Til turizmining yana bir xususiyati shundaki, u eng kichik yoshdan to o’rtta yoshgacha bo‘lgan keng yosh oralig’ini qamrab oladi. Ispan tilini chet tili sifatida o’rganayotgan talabalar uchun ingliz tilida so’zlashadigan mamlakatlardan farqli o’laroq Ispaniyada, voyaga yetmaganlar tomonidan tashkil etilgan kurslar taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

2. <http://uza.uz/posts/264889>
3. <https://www.gazeta.uz/oz/2019/10/22/uzbek-language/>
4. Соколова М.В. История туризма. Учебное пособие. - М.: Мастерство, 2002. С. 212.
5. I.S. Tuxliyev, R.Hayitboyev, B.Sh. Safarov, G.R.Tursunova. Turizm asoslari. Darslik. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O’rta Maxsus Ta’lim Vazirligi. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.-Toshkent, 2014, -357 b.
6. (Richards, G Global Directions in Language Travel [online]. Amsterdam: WYSE Travel Confederation, 2009. [cited 20.12.2016]. URL: <http://c.ymcdn.com/sites/www.altonet.org/resource/resmgr/files/alto-global-directions-2009.pdf>.
7. Ritchie, Brent, W. Managing educational tourism. Channel view publications, 2003. 283 p.
8. Roppolo, C. International education: What does this mean for universities and tourism? In M. Robinson, N. Evans and P. Callaghan (eds) Tourism and Cultural Change. Sunderland: Centre for Travel and Tourism and Business Editorial Press, 1996, pp. 191-201.)